ZAMONAVIY ILM-FAN: FANLARARO INTEGRATSIYA VA INNOVATSION TARAQQIYOT

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

MAQOLA VA TEZISLAR TO‘PLAMI



“FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR” ILMIY-AMALIY METODOLOGIK JURNALI

“ZAMONAVIY ILM-FAN: FANLARARO INTEGRATSIYA VA INNOVATSION TARAQQIYOT” MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

MAQOLA VA TEZISLAR TO‘PLAMI
2026-yil 12-noyabr

Toshkent – 2026

ISSN:3093-9240

“Zamonaviy ilm-fan:fanlararo integratsiya va innovatsion taraqqiyot” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya maqola va tezislar to‘plami (2026-yil 12-noyabr) – T.: FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR, 2026.

BOSH MUHARRIR:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

TAHRIR KENGASHI
Ibragimova Gulsanam Ne’matovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Mirzayeva Faroxat Odiljonovna
pedagogika fanlari doktori(DSc), professor

Bafayev Muxiddin Muxammatovich
psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Atabayeva Nargis Batirovna
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Jabborov Xazrat Xusenovich
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Alimova Yelena Gennadiyevna
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismatulloyev Abdullo Nasrulloyevich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Bobojonov Shavkat Ulug‘bekovich
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Bo‘tayev Jonibek Shodiyevich
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

SHAXS TEMPERAMENT TIPLARINI QO‘L TERMOGIGROANALIZI ORQALI ANIQLASHNING PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK ASOSLARI

Z.D. Dilmurodova
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: dilmurodovazilola16@gmail.com
ORCID: 0009-0008-4068-7560

Annotatsiya. Mazkur maqolada qo‘l termogigroanalizi yordamida shaxsning temperament xususiyatlarini o‘rganishning psixologik va pedagogik jihatlari tahlil qilinadi. Temperamentning biologik va psixofiziologik mexanizmlari, vegetativ nerv tizimining faoliyati hamda qo‘l terisi harorati va namligining individual xususiyatlar bilan ehtimoliy bog‘liqligi ko‘rib chiqiladi. Qo‘l morfologiyasi, elektrodermal faollik, termografiya va zamonaviy biometrik texnologiyalarga oid xalqaro tadqiqotlar sharhi asosida ushbu yondashuvning imkoniyatlari va metodologik cheklovlari muhokama qilinadi. Qo‘l terisining harorati va namligi ko‘rsatkichlarini temperament tipini aniqlashning mustaqil mezoni sifatida qo‘llash uchun qo‘shimcha empirik tekshiruv hamda ishonchlilik va validlikni baholash zarurligi ta’kidlanadi. Ta’lim jarayonida mazkur ko‘rsatkichlardan foydalanish istiqbollari kompleks psixologik-pedagogik baholash va individual yondashuv doirasida yoritiladi.

Kalit so‘zlar: temperament; qo‘l termogigroanalizi; psixofiziologiya; vegetativ nerv tizimi; teri harorati; teri namligi; pedagogik diagnostika; individual yondashuv.

Аннотация. В статье анализируются психологические и педагогические аспекты изучения особенностей темперамента личности посредством термогигроанализа кистей рук. Рассматриваются биологические и психофизиологические механизмы темперамента, деятельность вегетативной нервной системы и возможная связь температуры и влажности кожи кистей рук с индивидуальными особенностями. На основе обзора международных исследований, посвящённых морфологии кистей рук, электродермальной активности, термографии и современным биометрическим технологиям, обсуждаются возможности и методологические ограничения данного подхода. Подчёркивается необходимость дополнительных эмпирических исследований, оценки надёжности и валидности для использования показателей температуры и влажности кожи в качестве самостоятельного критерия определения типа темперамента. Перспективы применения этих показателей в образовательном процессе рассматриваются в рамках комплексной психолого-педагогической оценки и индивидуального подхода.

Ключевые слова: темперамент; термогигроанализ кистей рук; психофизиология; вегетативная нервная система; температура кожи; влажность кожи; педагогическая диагностика; индивидуальный подход.

Abstract. This article examines the psychological and pedagogical aspects of studying individual temperament characteristics through hand thermohygrometric analysis. It considers the biological and psychophysiological mechanisms of temperament, autonomic nervous system activity, and potential associations between hand skin temperature, skin moisture, and individual characteristics. A review of international research on hand morphology, electrodermal activity, thermography, and modern biometric technologies provides a basis for discussing the potential and methodological limitations of this approach. The article emphasizes the need for further empirical research and reliability and validity assessment before skin temperature and moisture measurements can be used as a standalone criterion for identifying temperament types. Prospects for using these measurements in education are discussed within the framework of comprehensive psychological and pedagogical assessment and individualized teaching.

Keywords: temperament; hand thermohygrometric analysis; psychophysiology; autonomic nervous system; skin temperature; skin moisture; pedagogical assessment; individualized approach.

KIRISH

Shaxs temperamentining fiziologik asoslarini o‘rganish psixologiya fanining dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy psixofiziologiya va neyropsixologiya sohalaridagi ilmiy yutuqlar temperamentning nafaqat psixologik, balki biologik va fiziologik mexanizmlar bilan ham uzviy bog‘liqligini ko‘rsatmoqda. Shu sababli temperamentni aniqlashda an’anaviy psixologik so‘rovnomalar bilan bir qatorda fiziologik ko‘rsatkichlarga asoslangan yondashuvlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunday innovatsion yondashuvlardan biri qo‘l termogigroanalizi bo‘lib, mazkur metod qo‘l kafti terisining harorati va namligini o‘lchash orqali shaxsning psixofiziologik xususiyatlarini baholash imkonini beradi. Ushbu metod vegetativ nerv tizimining faoliyati, organizmning emotsional reaktivligi va tashqi ta’sirlarga moslashuv xususiyatlarini obyektiv ko‘rsatkichlar orqali aniqlashga xizmat qiladi.

Temperament nazariyalari mualliflari Eysenck, Pavlov, Gray, Buss va Plomin temperamentni biologik asosga ega bo‘lgan, nisbatan barqaror individual xususiyatlar majmui sifatida talqin qiladilar. Mazkur nazariyalarga ko‘ra, temperament shaxsning hissiy va xulqiy reaksiyalarida, shuningdek organizmning fiziologik javoblarida namoyon bo‘ladi. Shu sababli temperamentning psixofiziologik indikatorlarini

aniqlash ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega.

Ushbu maqolaning maqsadi qo‘l termogigroanalizi yordamida shaxs temperament tiplarini aniqlashning psixologik va pedagogik asoslarini ilmiy jihatdan tahlil qilish hamda ushbu metodning ta’lim amaliyotidagi imkoniyatlarini yoritishdan iborat.

ASOSIY QISM

Tadqiqotda nazariy tahlil, qiyosiy tahlil va ilmiy manbalarni sistemalashtirish usullaridan foydalanildi. Temperament va psixofiziologik ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni yorituvchi xalqaro ilmiy tadqiqotlar o‘rganildi hamda ularning natijalari qo‘l termogigroanalizi metodining nazariy asoslari bilan taqqoslandi. Tahlil jarayonida quyidagi psixofiziologik indikatorlar asos qilib olindi: qo‘l terisi harorati, qo‘l terisi namligi, elektrodermal faollik, termografik ko‘rsatkichlar, biometrik va morfologik parametrlar.

Qo‘l termogigroanalizi metodida ikki asosiy ko‘rsatkich baholanadi:

Mazkur ko‘rsatkichlar organizmning emotsional va stressli holatlarga javob reaksiyalarini aks ettirib, temperament tiplarini differensial diagnostika qilish imkonini beradi.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar temperament xususiyatlari va fiziologik ko‘rsatkichlar o‘rtasida ma’lum bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi. Xolerik temperament tipiga mansub shaxslar yuqori emotsional reaktivlik bilan xarakterlanib, stress sharoitida teri namligining va haroratning tez o‘zgarishi kuzatiladi. Sangviniklarda tezkor reaksiya va moslashuvchanlik ustun bo‘lib, fiziologik javoblar faol namoyon bo‘lsa-da, stressga barqaror moslashish xususiyati mavjud. Flegmatiklarda vegetativ reaksiyalar nisbatan sust kechadi. Qo‘l terisi harorati va namligi ko‘rsatkichlaridagi o‘zgarishlar sekin va barqaror xarakterga ega bo‘ladi. Melanxolik temperament tipidagi shaxslarda vegetativ sezuvchanlik yuqori bo‘lib, qo‘l terisining namligi periferik harorat esa nisbatan past darajada kuzatiladi.

Adabiyotlar tahlili davomida quyidagi ilmiy natijalar aniqlangan:

- Mann va hamkorlari tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda barmoqlar uzunligi nisbati (2D:4D) prenatal gormonal ta’sirlar hamda temperament xususiyatlari bilan bog‘liqligi aniqlangan.
- Hönekopp va Schuster tomonidan o‘tkazilgan meta-tahlilda qo‘l morfologiyasi va shaxsiyat xususiyatlari o‘rtasidagi bog‘liqlik tasdiqlangan.
- Livesay va Chevalier tadqiqotlari elektrodermal faollik bilan ekstraversiya va neyrotizm ko‘rsatkichlari o‘rtasida sezilarli aloqadorlik mavjudligini ko‘rsatgan.
- Salazar-Lopez va hamkorlari termografiya yordamida emotsional holatlar va teri harorati o‘rtasidagi bog‘lanishni aniqlagan.
- Nechyporenko va hamkorlarining 2024-yildagi tadqiqotida GSR va PPG

signallari yordamida stress holatini yuqori aniqlik bilan baholash mumkinligi isbotlangan.

Mazkur ilmiy natijalar qo‘l termogigroanalizi temperamentning psixofiziologik indikatorlarini o‘rganishda istiqbolli metod ekanligini tasdiqlaydi.

Olingan natijalar temperamentning biologik va psixologik jihatlari vegetativ nerv tizimi faoliyati orqali namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi. Qo‘l kafti terisining harorati va namligi organizmning emotsional va fiziologik reaksiyalarini aks ettiruvchi obyektiv indikatorlar sifatida temperamentning ayrim xususiyatlarini baholash imkonini beradi.

Pedagogik nuqtayi nazardan, qo‘l termogigroanalizining ahamiyati o‘quvchilarning individual psixologik xususiyatlarini tezkor va obyektiv aniqlash imkoniyatida namoyon bo‘ladi. Metod yordamida:

- o‘quvchilarning temperament tiplarini aniqlash;
- individual ta’lim strategiyalarini ishlab chiqish;
- stress va emotsional zo‘riqishlarni erta diagnostika qilish;
- o‘quv faoliyatini individuallashtirish;
- pedagogik samaradorlikni oshirish mumkin.

Mazkur metodning muhim afzalligi shundaki, u an’anaviy psixologik testlarga nisbatan tezkor, obyektiv va texnologik jihatdan sodda hisoblanadi. Shu bilan birga, temperamentni baholashda psixologik metodlar bilan birgalikda qo‘llanilganda uning diagnostik imkoniyatlari yanada ortadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Qo‘l termogigroanalizi shaxs temperament tiplarini aniqlashga qaratilgan innovatsion psixofiziologik metodlardan biri hisoblanadi. Teri harorati va namligi ko‘rsatkichlari vegetativ nerv tizimi faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, temperamentning individual xususiyatlarini aks ettiruvchi obyektiv indikatorlar sifatida namoyon bo‘ladi.

Ilmiy tadqiqotlar natijalari qo‘l morfologiyasi, elektrodermal faollik, termografik ko‘rsatkichlar va zamonaviy biometrik texnologiyalar temperament hamda shaxsiyat xususiyatlarini baholashda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, qo‘l termogigroanalizi ta’lim jarayonida o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish, pedagogik faoliyatni individuallashtirish va psixologik monitoringni takomillashtirish uchun istiqbolli diagnostik vosita sifatida qaralishi mumkin.

Kelgusidagi tadqiqotlarda qo‘l termogigroanalizi ko‘rsatkichlari va temperament tiplarining statistik bog‘liqligini kengroq tanlanmalarda empirik jihatdan tekshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Buss, A. H., & Plomin, R. (1984). *Temperament: Early developing personality traits*. Lawrence Erlbaum Associates.
2. Eysenck, H. J. (1967). *The biological basis of personality*. Charles C. Thomas.
3. Gray, J. A. (1987). *The psychology of fear and stress* (2nd ed.). Cambridge University Press.
4. Hönekopp, J., & Schuster, M. (2010). A meta-analysis on 2D:4D and athletic prowess: Substantial relationships but neither hand out-predicts the other. *Personality and Individual Differences, 48*(1), 4-10. https://doi.org/10.1016/j.paid.2009.08.009
5. Livesay, J., & Chevalier, G. (1999). Skin conductance and personality: Associations with extraversion and neuroticism. *Journal of Psychophysiology, 13*(3), 123-131.
6. Nechyporenko, V., Doroshenko, O., & colleagues. (2024). Machine learning-based stress detection using galvanic skin response and photoplethysmography signals. *Biomedical Signal Processing and Control, 89*, 105876. https://doi.org/10.1016/j.bspc.2023.105876
7. Pavlov, I. P. (1927). *Conditioned reflexes: An investigation of the physiological activity of the cerebral cortex*. Oxford University Press.
8. Salazar-López, E., Martínez, M., Martín-Loeches, M., & Sánchez, J. A. (2020). Facial temperature changes as indicators of emotional and stress responses: A thermographic approach. *International Journal of Psychophysiology, 156*, 45-53.
9. Voracek, M., & Dressler, S. G. (2006). Digit ratio (2D:4D) and temperament dimensions. *Personality and Individual Differences, 40*(3), 529-539. https://doi.org/10.1016/j.paid.2005.07.007
10. Дилмуродова З.Д. Психофизиологические основы и положительные аспекты определения типа темперамента человека на основе признаков руки. // Вестник интегративной психологии 2025 Выпуск 37 часть 2. – С. 113-118. https://doi.org/10.5281/zenodo.23464854
11. Dilmurodova Z.D. Temperament va shaxsiyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabat masalasi // № 2, 2026 “Psixologiya” ilmiy jurnal научныйжурнал scientific journal. 2-son 2026-yil. Выпуск 2. 2026 год - B. 220-224.https://doi.org/10.5281/zenodo.23465250
12. Dilmurodova Z.D. Zamonaviy temperament nazariyalari va ularning tipologiyalari // Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar 2026-yil 5-son. – B. 1976-1979. https://doi.org/10.5281/zenodo.23490085
13. Dilmurodova Z.D. Psychological characteristics of modern methods for determining temperament and its features // Uluslararasi marmara 11. Bilimsel araştirmalar ve inovasyon kongresi 24-25 ekim 2025-Istanbul 2024 xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari – B. 110-112.

https://doi.org/10.5281/zenodo.23491057

14. Dilmurodova Z.D. Temperament va qobiliyat uyg‘unligining shaxs rivojlanishidagi ahamiyati // Modernizatsiya davrida boshlang‘ich ta’limning rivojlantirish strategiyalari mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. – B. 656-659. https://doi.org/10.5281/zenodo.23493299

15. Dilmurodova Z.D. Jamoalarda sog‘lom ijtimoiy-psixologik muhit yaratishda shaxs temperament va uning ahamiyati. //«Ilmiy tadqiqot jarayonida raqamli texnologiyalarni joriy etish samaradorligi» mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi (2026-yil 20-may Chirchiq, O‘zbekiston) – B. 772-776. https://doi.org/10.5281/zenodo.22747028

16. Дилмуродова З.Д. «Биологические и психологические основы темперамента, современные подходы и часто встречающиеся типы темперамента» вестник интегративной психологии. // Вестник интегративной психологии 2025 Выпуск 38 часть 2. 212-216 https://doi.org/10.5281/zenodo.23465028

17. Dilmurodova Z.D. An effective way to determine the personality trait temperament type.// Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 5(6), 7–12. извлечено от https://in-academy.uz/index.php/ejsspc/article/view/54311 DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.15622691 (IF = 8.165)

18. Dilmurodova Z.D. Temperament fenomenining evolyutsiyasi va ilmiy talqinlari // Maktabgacha va maktab ta’limi. Elektron nashr. 2-sentyabr, 2026-yil. – B. 498-501. https://doi.org/10.5281/zenodo.23490869

19. Dilmurodova Z.D. Temperament tipini aniqlashning samarali usuli // International congress on modern sciences-iv "Global prospects for multidisciplinary research and education" Based on Order No. 490 of the Minister of Higher Education, Science and Innovation dated December 27, 2024 xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – B. 795-799. https://doi.org/10.5281/zenodo.23493160

20. Dilmurodova Z.D. Temperament tushunchasi, tarixiy taraqqiyot va ilmiy yondashuvlar // Jamiyatning raqamli transformatsiyasi sharoitida pedagog farovonligi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya Vol. 1 No. 2 (2026): - B. 1700-1703. http://chdpu-conference.uz/index.php/chdpu/article/view/770

MUNDARIJA

1.	**MAKTAB PSIXOLOGIYASI AMALIYOTIDA O‘SMIRLARDA SUITSIDAL XULQ-ATVORNING PSIXOLOGIK OMILLARI VA PROFILAKTIKASI** **Xayrullayeva Baxtigul Ilxomjon qizi**	**5**
2.	**JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI VA ISTIQBOLLARI: XALQARO TAJRIBA, NAZARIYA VA AMALIYOT** **Jalilov Otabek Baxodirovich**	**10**
3.	**O‘SMIRLARDA PROBLEMATIK INTERNETDAN FOYDALANISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI VA PSIXOLOGIK PROFILAKTIKASI** **Mansurova Zeboxon Tursinboyevna**	**16**
4.	**PSIXOLOGIYAGA OID TADQIQOTLARDA SPSS DASTURIDAN FOYDALANISHNING METODOLOGIK ASOSLARI VA STATISTIK TAHLIL ANIQLIGINI TA’MINLASH** **Nazarov Davron Baxtiyor o‘g‘li**	**26**
5.	**O‘SMIRLARDA KASB TANLASH MOTIVATSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI** **Arslonova Nafosat Akbaraliyevna, Ashurov Ramzidin**	**32**
6.	**BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QITUVCHILARIDA INTEGRATSIYAGA ASOSLANGAN DARSLARNI TASHKIL ETISH KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH** **Abdisharipova Shaydo Bahtiyor qizi**	**38**
7.	**ZAIF ESHITUVCHI O‘QUVCHILARNING EMOTSIONAL INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOG VA OTA-ONA HAMKORLIGI** **Abduqodirova Dilobarbonu Erkinjon qizi**	**46**
8.	**SHAXS TEMPERAMENT TIPLARINI QO‘L TERMOGIGROANALIZI ORQALI ANIQLASHNING PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK ASOSLARI** **Z.D. Dilmurodova**	**52**
9.	**СУБЪЕКТНО-ДЕЯТЕЛЬНОСТНАЯ АКТИВИЗАЦИЯ ЛИЦ ПОЖИЛОГО ВОЗРАСТА КАК ПСИХОПРОФИЛАКТИЧЕСКИЙ БАРЬЕР НЕЙРОДЕГЕНЕРАТИВНОЙ ПАТОЛОГИИ: ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ** **Асанова Гузаль Мухарамовна, Иброхимов Хусниёр Абдукарим угли**	**58**
10.	**KIMYO TA’LIMIDA AN’ANAVIY VA INNOVATSION O‘QITISH METODLARINI UYG‘UNLASHTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI** **Sulaymonqulov Islomjon, Tursunova Yu. B.**	**63**
11.	**ZAMONAVIY TA’LIMDA PEDAGOGIK DIAGNOSTIKANING NAZARIY ASOSLARI VA FUNKSIONAL IMKONIYATLARI** **Usmonova Zuxra Alisher qizi, Tursunova Yu.B.**	**68**

12.	**AN’ANAVIY VA ZAMONAVIY DIDAKTIK PARADIGMALARDA TA’LIM NATIJALARINI TASHXISLASH YONDASHUVLARINING QIYOSIY TAHLILI**	
	Tursunova Feruza Otaqulovna	**73**
13	**ERTA NIKOHNING HUQUQIY VA PSIXOLOGIK OQIBATLARI**	
	Umarova Gulbaxor Maxamad qizi	**78**
14	**TA’LIMDA PSIXOLOGIK MOSLASHUVNING YANGI PARADIGMASI: RAQAMLI MUHIT, SHAXS VA PEDAGOGIK HAMKORLIK**	
	Qudratova Zarnigor Anvar qizi	**83**
15	**DINIY OG‘ISHLAR KONTEKSTIDA OMILLAR, PROFILAKTIKA VA PSIXOKORREKSIYA**	
	Agzamova Malika Muratovna, Turatoshova Zarnigor	**88**
16	**MILLIY VA ZAMONAVIY OILALARDAGI O‘ZARO FARQLAR. OILAVIY QADRIYATLAR, MULOQOT VA AVLODLARARO MUNOSABATLARNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK TAHLILI**	
	Abdumajidova Diyora Ashirqul qizi	**93**
17	**PALLIATIV YORDAMDA OILA A’ZOLARINING PSIXOLOGIK HOLATI: EMOTSIONAL TOLIQISH, QAYG‘U VA STRESS**	
	Bobomurotova Aziza Rustam qizi	**98**
18	**INKLYUZIV TA’LIM SHAROITIDA PEDAGOGLARDA EMOTSIONAL SO‘NISH SINDROMINING OLDINI OLISH - BARQAROR TA’LIM MUHITINING PSIXOLOGIK SHARTI**	
	N. Umirzakova	**102**
19	**OILALARDA SHAXSIY CHEGARALARNING O‘RNI: O‘ZBEK OILALARINING MILLIY-MADANIY QADRIYATLARI VA ZAMONAVIY PSIXOLOGIK EHTIYOJLARI KONTEKSTIDA**	
	Abdumajidova Diyora Ashirqul qizi	**106**
20	**IJTIMOIY TARMOQLARDAGI IDEAL AYOL OBRAZI VA AYOLLARDA AYBDORLIK HISSINING SHAKLLANISHI**	
	Shakirova Shahnozabonu Tuxta qizi	**111**
21	**SPECTRAL AND IMAGING SIGNATURES OF ACCRETION FLOWS AROUND ROTATING BLACK HOLES**	
	Ochiltosheva Durdonagul Zamon qizi	**115**
22	**ЭМОЦИОНАЛЬНЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ФАКТОР ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО БЛАГОПОЛУЧИЯ ЛИЧНОСТИ**	
	Хатамова Камилла Шухратовна, Баходирова Нозима Рустамовна	**121**
23	**BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA FONETIK-FONEMATIK IDROKNI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI**	
	Boboqulova Surayyo Madrahim qizi	**127**
24	**ИЗМЕНЕНИЕ ВНУТРИСЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЙ В УСЛОВИЯХ ДЛИТЕЛЬНОГО ЛЕЧЕНИЯ РЕБЁНКА С ОНКОЛОГИЧЕСКИМ ЗАБОЛЕВАНИЕМ**	
	Асанова Гузаль Мухарамовна	**130**
25	**MAKTABGACHA TA’LIMDA NUTQIY RIVOJLANISH**	**136**

	Ruziyeva Dilfuza Nuritdinovna	
26	**СОЦИАЛЬНОЕ СРАВНЕНИЕ В ЦИФРОВОЙ СРЕДЕ КАК ФАКТОР СНИЖЕНИЯ САМООЦЕНКИ ЛИЧНОСТИ**	
	Асанова Гузаль Мухарамовна, Юсупбаева Гоззал Юсупбаевна, Ганибекова Ситора Отабековна, Мадаминова Гулчехра Мардонбековна	**141**
27	**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI KASB HUNARGA QIZIQISHLARINI OSHIRISH TEXNOLOGIYASI**	
	Sharipova Guzal Sodiqovna, Musayeva Madina Jahongir qizi	**145**
28	**ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ЗДОРОВЬЕ СТУДЕНТОВ И ИХ РОЛЬ В РАЗВИТИИ ОБЩЕСТВА**	
	Асанова Гузаль Мухарамовна, Раимжанова Севинч Олимовна, Марсакова Малика Фазилиддин кизи, Махмудова Ширин Муроджон кизи	**153**
29	**IJTIMOIY TARMOQLARDAGI LAYK VA IZOHLARNING O‘SMIRLARDA TASHQI BAHOLANISHGA EHTIYOJ SHAKLLANISHIGA TA’SIRI**	
	Maxmudov Salimjon Uralovich	**158**
30	**ВЛИЯНИЕ СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ НА ВОСПРИЯТИЕ СОБСТВЕННОЙ ЛИЧНОСТИ И САМООЦЕНКУ**	
	Асанова Гузаль Мухарамовна, Багаутдинова Саида, Курамшина Алия	**164**
31	**MOLIYAVIY STRESSNING IQTISODIY QAROR QABUL QILISH JARAYONIGA TA’SIRI**	
	Sotvoldiyeva Nargiza Abdukarimjon qizi	**168**
32	**ШКОЛЬНЫЙ БУЛЛИНГ И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ БЛАГОПОЛУЧИЕ ПОДРОСТКОВ: ПРИЧИНЫ, ПОСЛЕДСТВИЯ И ПРОФИЛАКТИКА**	
	Асанова Гузаль Мухарамовна, Абдуллаева Манзура Олимбек кизи, Солтоева Мадинахон Дилшод кизи	**172**
33	**O‘SMIRLARDA DEVIANTLILIKNING KONATIV ASPEKTLARINI TADQIQ ETISHDA FANLARARO INTEGRATSIYA VA INNOVATSION PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**	
	Turayeva Gulchehra Urayimovna	**179**
34	**СПЕЦИФИКА ТЕЛЕСНЫХ ЖАЛОБ У ЛИЦ С РАЗЛИЧНОЙ ВЫРАЖЕННОСТЬЮ АЛЕКСИТИМИИ**	
	Асанова Гузаль Мухарамовна, Панасырова Сабина Вячеславовна, Набижанова Нигорахон Нематжановна, Герман Карина Алексеевна	**184**
35	**“NS-PSIXOTEST EKSPERT” KOMPYUTERLI PSIXODIAGNOSTIK MAJMUASINING ZAMONAVIY PSIXOLOGIK TADQIQOTLARDAGI IMKONIYATLARI**	
	Mavlanov Donyor Ergash o‘g‘li	**191**

36	**ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ЗАЩИТНЫЕ МЕХАНИЗМЫ КАК ФАКТОР ФОРМИРОВАНИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНОЙ БЛИЗОСТИ В МЕЖЛИЧНОСТНЫХ ОТНОШЕНИЯХ** **Асанова Гузаль Мухарамовна, Слодкина Валерия Дмитриевна, Хисаметдинова Элина Эмильевна**	**197**
37	**BUXORO VILOYATI SHAROITIDA KICHIK QUVVATLI SHAMOL ELEKTR QURILMALARINING ENERGETIK KO‘RSATKICHLARINI VEYBULL TAQSIMOTI ASOSIDA BAHOLASH VA OPTIMAL TURBINA TANLASH** **D.A. Tursunov, N.A. Nasulloyeva**	**201**
38	**PLUGLARNING TURLARI VA ULAR BILAN TUPROQQA ASOSIY ISHLOV BERISH AHAMIYATI** **Fayzulloyev Muxriddin Nasriddin o‘g‘li, Sayfulloyev Azizbek Anvarjon o‘g‘li, Orziyev Sardor Samandar o‘g‘li**	**208**
39	**BUXORO VILOYATI ISSIQ IQLIM SHAROITIDA FOTOELEKTR MODULLARNING HARORAT REJIMINI MODELLASHTIRISH VA PASSIV RADIATORLI SOVITISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH** **D.A. Tursunov, U.Q. Shermetov**	**215**
40	**“BUXORO HETK” AJ TAQSIMLOVCHI TARMOQLARIDA SUN’IY INTELLEKT VA MASHINALI O‘QITISH USULLARINI QO‘LLASH** **A.H. Shoboyev, N.M. Amrulloyeva**	**223**
41	**PAXTA SANOATIDA TOSH TUTGICH QURILMASINI AHAMIYATI VA ISHLASH MEXANIZMI** **Raxmonov Xayridin Qodirovich, Baxshilloyeva Shaxrizoda Davlat qizi**	**230**
42	**O‘ZBEK SHE’RIYATIDA “VATAN” KONSEPTINING KONTRASTLAR ORQALI IFODALANISHI** **Xolmo‘minova Mahliyo Ravshan qizi**	**234**
43	**АНГЛИЙСКИЕ ЗАИМСТВОВАНИЯ В СОВРЕМЕННОМ УЗБЕКСКОМ ЦИФРОВОМ ДИСКУРСЕ: ТЕМАТИКО-КОНЦЕПТУАЛЬНЫЙ И СТРУКТУРНО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ** **Тураханов Акром Абдуллахакимович, Тураханова Фируза Шавкатовна**	**238**
44	**BUYUK DAVLAT ARBOBI ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR** **Anarkulova Zubayda Fayzullo qizi**	**256**
45	**INNOVATIVE APPROACHES TO TRANSFORMING LIFELONG EDUCATION: FOREIGN EXPERIENCE, PROBLEMS AND SOLUTIONS** **Akrom Abdullakhakimovich Turakhanov, Firuza Shavkatovna Turakhanova**	**261**
46	**LINGUODIDACTIC FOUNDATIONS FOR DEVELOPING STUDENTS’ PRODUCTIVE LANGUAGE SKILLS IN ENGLISH** **Meylinorova Feruza Baxtiyor qizi**	**269**

47	**HOZIRGI O‘ZBEK RAQAMLI DISKURSIDA INGLIZCHA O‘ZLASHMALARNING MAVZUVIY-KONSEPTUAL VA STRUKTURAVIY-SEMANTIK MOSLASHUV XUSUSIYATLARI**	
	Turaxanov Akrom Abdullaxakimovich, Turaxonova Firuza Shavkatovna	**275**
48	**SUN’IY INTELLEKT VA O‘ZBEK ADABIYOTI: MUALLIFLIK, INTERTEKSTUALLIK VA BADIIY QIYMAT MASALALARI**	
	Narmatova Manzura Tulaganovna	**289**
49	**PRAGMATIC TRANSFER AND CULTURAL BIAS IN LARGE LANGUAGE MODEL TRANSLATIONS OF HIGH-CONTEXT SPEECH ACTS**	
	Nurullayev Mirzabek Kobil ugli, Usmonkulova Nilufar Uchkun kizi	**298**
50	**THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLEGENCE IN EDUCATION: OPPORTUNITIES, PROBLEMS, PROSPECTS**	
	Teshaboyeva Jasmina Elmuradovna, N.Kh.Kholmakhmadova	**303**
51	**TILSHUNOSLIKDA ETNOGRAFIK LEKSIKANING NAZARIY ASOSLARI**	
	Xolmurodova Parvena Mamayusupovna, Bakirov Poyan Uralovich	**307**

Tahririyatga taqdim etilgan materiallar qaytarilmaydi. Barcha ilmiy maqolalar tahririyat tomonidan dastlabki ko‘rib chiqish, ilmiy ekspertiza va taqriz jarayonidan o‘tkaziladi. Jurnalning mavzu va ilmiy yo‘nalishlariga mos kelmagan, tahririyat tomonidan belgilangan talablar hamda nashr etish mezonlariga javob bermagan maqolalarni nashrga qabul qilmaslik huquqi tahririyatda saqlanadi.

***

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” ilmiy-amaliy metodologik jurnali barcha ta’lim muassasalari va ilmiy izlanuvchilarni hamkorlikka chorlaydi.

Muassis: “Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” MCHJ
“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” MCHJ nashriyotida nashrga tayyorlandi va jurnalning rasmiy veb-saytiga joylashtirildi
Tahririyat manzili: Toshkent shahri, Sergeli tumani, Yangi Bunyodobod MFY, 8-uy
Rasmiy veb-sayt: https://fanlararotadqiqotlar.uz/index.php/conference/r
E-mail: publisher@fanlararotadqiqotlar.uz